O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASINING IJTIMOIY-SIYOSIY HAYOT VA DAVLAT BOSHQARUVI TIZIMIGA TA’SIRI

Rustamov Shermuhammad Sherzod o‘g‘li
Huquqni muhofaza qilish akademiyasi "tergov faoliyati" yo‘nalishi 1-kurs "B" potok 2 -guruh talabasi

Anotatsiya: *Ushbu maqola O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayoti va davlat boshqaruvi tizimiga ta’sirini tahlil qiladi. Maqolada Konstitutsiyaning qabul qilinishi, uning jamiyat va davlat tizimida o‘rni, shuningdek, so‘nggi yillarda kiritilgan o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar yoritiladi. O‘zbekiston Konstitutsiyasining xalqaro tajriba bilan uyg‘unlashuvi va davlat boshqaruvini takomillashtirishga qaratilgan islohotlar haqida so‘z boradi. Maqola, shuningdek, Konstitutsiyaning huquqiy poydevor sifatida mamlakatdagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy tizimlarga ta’sirini o‘rganadi.*

Kalit so‘zlar: *O‘zbekiston Konstitutsiyasi, davlat boshqaruvi, ijtimoiy-siyosiy hayot, konstitutsiyaviy islohotlar, prezident vakolatlari, parlament tizimi, fuqarolik huquqlari.*

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini tahlil qilishdan avval, avvalo "konstitutsiya deganda nimani tushunamiz?" degan savolga aniqlik kiritish zarur. Konstitutsiya lotincha "Constitution" so‘zidan olingan bo‘lib, "Tuzilish va Tuzuk - degan ma’nolarni bildiradi.

Konstitutsiya — mamlakatning siyosiy-huquqiy asoslarini mustahkamlovchi eng oliy yuridik kuchga ega hujjatdir.

Konstitutsiya davlatning tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv organlarining tizimi hamda ularning vakolatlarini, bu organlarni shakllantirish tartibini, fuqarolarning huquq va erkinliklarini, jamiyat va shaxsning o‘zaro munosabatlarini huquqiy asoslarini belgilab beradi.

Qadimda Sharq va Osiyo hamda Markaziy Osiyo mamlakatlarida Amir Temur "Tuzuklar"i Konstitutsiyaviy hujjat xususiyatiga ega bo‘lgan shariat qonunlarini o‘z ichiga olgan.

Kirish

Mustaqilligimiznig ilk yillarida qabul qilingan asosiy Qonunimiz (O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi) Sharq va G‘arb, Janub va Shimolning 97 ta mamlakati to‘plagan ilg‘or konstitutsiyaviy tajribaga muvofiq hamda jahon davlatlarining konstitutsiyaviy tajribasini bir qator ilg‘or jihatlari hisobga olgan holda, "Birlashgan Millatlar Tashkiloti", "Yevropada Xavfsizlik va hamkorlik kengashi" kabi nufuzli xalqaro tashkilotlar va AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya kabi davlatlar mutaxassislarining ekspertizasidan o‘tgandan so‘ng 1992-yil 8-dekabr kuni Bosh Qonunimiz qabul qilingan. Shu kundan e’tiboran, 8-dekabr – umumxalq bayrami deb e’lon qilindi.

Asosiy qism

Bundan tashqari, Qomusimizda 1948-yil 10-dekabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 217 A (III) ko‘rsatmasi orqali qabul qilingan “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”da e’lon qilingan ko‘rsatmalari inobatga olingan.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligiga erishganda dunyo sahnasida oz orniga ega bo‘lsa, , birinchi Konstitutsiyamiz qabul qilingan kuni davlatimiz yangidan tug‘ildi, haqiqiy mustaqilligimizga mustahkam huquqiy poydevor qo‘yildi.

O‘zbekiston konstitutsiyasiga hozirgi vaqtga qadar unga rasman 16 marotaba o‘zgartirishlar kiritilgan hisoblanadi. Agar har bir normani hisoblasak, unda jami 68 ta normaga tuzatish, o‘zgartirish va qo‘shimcha kiritilgan. Jumladan:

1. 1993-yil 28-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 77-moddasiga o‘zgartish kiritish to‘g‘risida”gi qonun, 77-modda: Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari soni 150 nafardan iboratligi to‘g‘risidagi normaga miqdorning aniq chegarasini kengaytiruvchi o‘zgartirish kiritildi. Ya’ni “bir yuz yigirma deputatdan iborat” jumlasi “deputatlardan iborat” tarzda o‘zgartirildi.

2. 2003-yil 24-aprelda “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun: O‘n yillik jimlikdan so‘ng konstitutsiyaning biryo‘la 30 ta normasiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi. O‘zgartirishlar ikki palatali parlamentga o‘tilishi munosabati bilan amalga oshirilgan edi. Xususan, konstitutsiyaning beshinchi bo‘limi, XVIII–XX, XXIII boblariga taalluqli, kelgusida ikki palatali parlamentni saylash va prezidentning konstitutsiyaviy vakolat muddatini besh yildan yetti yillik qilib o‘zgartirish masalasiga bog‘liq.

2002-yil 27-yanvarda ikki palatali parlament tuzish va prezidentning konstitutsiyaviy vakolat muddatini o‘zgartirish to‘g‘risidagi ikki muhim masala bo‘yicha referendum o‘tkazildi.

Referendum qaroriga muvofiq, “Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to‘g‘risida”, “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to‘g‘risida”, “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to‘g‘risida”gi konstitutsiyaviy qonunlar o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish uchun asos bo‘ldi. Oliy Majlis ikki palata – Qonunchilik palatasi va Senatdan iboratligi, Qonunchilik palatasi bir yuz yigirma deputatdan iborat bo‘lishi, Qonunchilik palatasi va Senatning mutlaq hamda birgalikdagi vakolatlari, prezident vakolat muddati yetti yilga uzaytirilishi bilan bog‘liq o‘zgartirishlar kiritildi.

3. 2007-yil 11-aprelda “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining moddalariga tuzatishlar kiritish to‘g‘risida (89-moddasiga, 93-moddasining 15-bandiga, 102-moddasining ikkinchi qismiga)”gi qonun: Konstitutsiyaning uchta normasiga o‘zgartirish va qo‘shimcha kiritildi. Prezidenti davlat boshlig‘i va davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta’minlashi, shuningdek, qonunlarni buzgan yoki sha’ni va qadr-qimmatiga dog‘ tushiradigan xatti-harakat sodir etgan tuman va shahar hokimlarini prezident o‘z qarori bilan lavozimidan ozod etishga haqli ekaniga oid o‘zgartirish kiritildi.

4. 2008-yil 25-dekabrda “Saylov to‘g‘risidagi qonun hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonunlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi qonun, yana o‘sha 77-modda: Bitta normaga o‘zgartirish kiritildi. Konstitutsiyaning 77-moddasida Qonunchilik palatasi qonunga muvofiq saylanadigan bir yuz ellik deputatdan iborat bo‘lishi belgilandi.

5. 2011 yil 18 aprelda “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini ayrim moddalariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida(78, 80, 93, 96 va 98-moddalariga)”gi qonun: Konstitutsiyaning beshta normasiga o‘zgartirish va qo‘shimcha kiritildi. Bu o‘zgartish va qo‘shimchalar prezident, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlar o‘rtasidagi vakolatlarning yanada mutanosib taqsimlanishini ta’minlash, siyosiy partiyalarning roli va ta’sirini kuchaytirish maqsadini ko‘zlagan edi.

Qonun Oliy Majlis bosh vazir hisobotlarini eshitishi va muhokama qilishi tartibini belgiladi. Bosh prokuror o‘rinbosarlarini tayinlash hamda ularni lavozimidan ozod etish to‘g‘risidagi prezident farmonlarini tasdiqlash Senatning mutlaq vakolatlaridan chiqarildi. Qolaversa, Prezident ijro etuvchi hokimiyatga rahbarlik qilishi haqidagi norma chiqarildi.

Qonun bilan prezident viloyatlar hokimlarini hamda Toshkent shahar hokimini tayinlashi hamda lavozimidan ozod etishi bosh vazir taqdimiga binoan amalga oshirilish tartibi o‘rnatildi. Bundan tashqari, bosh vazir nomzodi Qonunchilik palatasiga saylovda eng ko‘p deputatlik o‘rinlarini olgan siyosiy partiya yoki eng ko‘p deputatlik o‘rinlarini qo‘lga kiritgan bir necha siyosiy partiya tomonidan taklif etilishi belgilandi. Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirish haqidagi norma mustahkamlandi.

Nihoyat, 96-moddaga muhim o‘zgartish kiritildi: Prezident vazifasini bajarolmay qolgan holatda uning vazifa va vakolati vaqtincha Senat raisi zimmasiga yuklanadi. Uch oy ichida prezident saylovi tashkil etiladi va o‘tkaziladi.

6. 2011-yil 12-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 90-moddasiga tuzatish kiritish to‘g‘risida”gi qonun, yetti yildan besh yilga qaytish

Bitta normaga tuzatish kiritildi. U prezidentning vakolat muddati yetti yildan besh yilga qisqartirilishi bilan bog‘liq edi.

7. 2014-yil 16-aprel, “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida (32, 78, 93, 98, 103 va 117-moddalariga)”gi qonun

Oltita norma o‘zgardi. Davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish tartibi qonun bilan belgilanishi to‘g‘risidagi norma kiritildi. Shunigdek, parlament nazoratini amalga oshirish Qonunchilik palatasi va Senatning birgalikdagi vakolati sifatida belgilandi.

8. 2017-yil 6-aprel, “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o‘zgartishlar va qo‘shimcha kiritish to‘g‘risida”gi qonun

Yettita normaga o‘zgartirish va qo‘shimcha kiritildi. Ular sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta’minlash maqsadida Sudyalar oliy kengashi hamda iqtisodiy va ma’muriy sudlar faoliyatining huquqiy asosi mustahkamlanishi bilan bog‘liq edi.

9. 2017-yil 31-may, “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida (80, 93, 108 va 109-moddalariga)”gi qonun

To‘rtta norma o‘zgardi. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, shuningdek, Konstitutsiyaviy sud mustaqilligini mustahkamlashga oid ayrim o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi.

10. 2017-yil 29-avgust, “Toshkent shahar xalq deputatlari tuman kengashlariga saylov to‘g‘risida”gi qonun

Ikkita normaga o‘zgartirish va qo‘shimcha kiritildi. Jumladan, Toshkent shahri tarkibiga kiruvchi tumanlarga hokim tayinlanishi va lavozimidan ozod etilishi Toshkent shahar hokimi vakolatiga kirishi to‘g‘risidagi norma belgilandi.

11. 2018-yil 15-oktyabr, “Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida”gi qonun

Bitta norma o‘zgardi. Fuqarolar yig‘inlari o‘zini o‘zi boshqarish organlarida raisni (oqsoqolni) va uning maslahatchilarini emas, balki faqat raisni (oqsoqolni) ikki yarim yil muddatga saylash tartibi kiritildi.

12. 2019-yil 18-fevral, “Xavfsizlik va mudofaa sohasidagi ba’zi davlat organlari faoliyati takomillashtirilishi munosabati bilan o‘zbekiston respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun, MXX DXXga aylandi

Ikkita norma o‘zgardi. Bu o‘zgartirish O‘zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmatining nomlanishi O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmatiga o‘zgarishi bilan bog‘liq.

13. 2019-yil 5-mart, “Hukumatni shakllantirish tartibi demokratlashtirilishi va uning mas’uliyati kuchaytirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun

Uchta norma. Ularga ko‘ra, Vazirlar Mahkamasi a’zolarini tasdiqlash va lavozimlaridan ozod qilish bosh vazirning Qonunchilik palatasi ma’qullaganidan keyin kiritilgan taqdimiga binoan amalga oshirilish tartibi joriy etildi.

14. 2023-yil 30-aprel, “Konstitutsiyaning 106-moddasiga ozgartirish kritilgan ya’ni prezidentning vakolat muddati 5 yillikdan 7 yillikka o‘zgartirildi”

“Albatta, Konstitutsiyani yangilashdek g‘oyat muhim, strategik vazifani hal etishda biz yetti marta emas, yetmish marta o‘ylab, xalqimiz bilan har tomonlama maslahatlashgan holda, yurtimiz va jahondagi ilg‘or tajribalarni chuqur o‘rganib, aniq qaror qabul qilishimiz zarur”, — deyiladi prezident tabrigida.

Shavkat Mirziyoyev davlat va siyosat arbobi Uinston Cherchillning quyidagi gapini iqtibos keltirdi: “Yaxshi bo‘lish uchun — o‘zgarish kerak, yaxshilarning yaxshisi bo‘lish uchun esa yanada ko‘proq o‘zgarish kerak”.

Yuqoridagilarni amalga oshirish maqsadida Konstitutsiyaviy komissiya tashkil etildi. Konstitutsiyaviy komissiyaning raisi etib, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Spikerining birinchi o‘rinbosari Mavluda Xojayeva Islamovna va to‘rt kishidan iborat Konstitutsiyaviy komissiya o‘rinbosarlari va ellik ikki kishidan iborat komissiya a’zolari belgilandi

Mamlakatimiz aholisini Konstitutsiyani takomillashtirishda faol ishtirok etishi uning xalqchilligini ta’minlaydi. Konstitutsiyaviy komissiya tomonidan muntazam ravishla

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish bo‘yicha respublikamizning barcha xududlaridan kelgan takliflarni olib, ularni ko‘rib chiqilmoqda.

Shuningdek, takliflarni mahallalar va Xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga og‘zaki yoki yozma shaklda ham bildirish mumkin. Kelib tushayotgan takliflar Konstitutsiyaviy komissiyaning takliflar bilan ishlash guruhi tomonidan ko‘rib chiqilib, Konstitutsiyaviy komissiyaning Yig‘ma axborot-tahlil guruhi tomonidan o‘rganilib, Konstitutsiyaning boblari yo‘nalishlari bo‘yicha tasniflanib, Qonunchilik palatasiga kiritish uchun tavsiya etiladigan takliflar saralanmoqda.

Konstitutsiyaviy komissiya tomonidan berilgan takliflar ommaviy axborot vositalarida va ijtimoiy tarmoqlarda muhokama qilinib, yig‘ma axborot-tahlil guruhi tomonidan o‘rganib chiqilmoqda. Jumladan:

O‘tgan davrda barchaning o‘rnatilgan mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdoridan kam bo‘lmagan tarzda taqdirlanish huquqiga egaligi, mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori insonning o‘zi va oilasining hayot kechirishi uchun yetarli miqdorda bo‘lishi, xodimlarning mehnat huquqlarini himoya qilish, ishsizlik va kambag‘allikni tugatish uchun davlat o‘zining barcha imkoniyatlaridan foydalanishi lozimligi, iqtisodiy faoliyatda insofsiz raqobatga, monopollashtirishga yo‘l qo‘yilmasligi, mamlakatda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik va investitsiyaviy muhit hamda sharoitlarni ta’minlashda davlatning majburiyatlarini belgilashga doir qator takliflar kelib tushgan.

Aholidan insonning asosiy huquq va erkinliklari ajralmas va daxlsiz bo‘lib, har kimga tug‘ilganidan tegishli ekanligini konstitutsiyaviy mustahkamlash, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o‘zining aybsizligini isbotlashiga majbur emasligini belgilash, pedagog xodimlarning kasbiy faoliyatiga aralashish, ta’lim oluvchilarning bilimlarini to‘g‘ri va xolis baholashga ta’sir ko‘rsatishga, shuningdek, ularning xizmat majburiyatlarini bajarishiga to‘sqinlik qilishga yo‘l qo‘yilmasligini Konstitutsiyada aks ettirish kabi yana ko‘plab takliflar berilgan.

Takliflar Yig‘ma axborot-tahlil guruhi tomonidan ko‘rib chiqilib, Konstitutsiyaviy komissiyaga o‘rnatilgan tartibda kiritiladi.

Aholini, fuqarolik jamiyati institutlarini Konstitutsiyaviy islohotlarning hozirgi bosqichi yuzasidan o‘z vaqtida va batafsil xabardor qilish ishlari tizimli ravishda amalga oshirilmoqa.

Xulosa

O‘zbekiston Konstitutsiyasi mamlakatning siyosiy-huquqiy tizimi va davlat boshqaruvining asosiy poydevoridir. U hokimiyat organlari vakolatlari va fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini belgilaydi. So‘nggi o‘zgartirishlar hokimiyatlar muvozanatini kuchaytirish va huquqiy madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan. Konstitutsiyaviy islohotlar demokratik qadriyatlarni mustahkamlash va qonun ustuvorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Shu orqali yoshlar vatanparvarlik ruhida tarbiyalanadi va milliy g‘urur shakllanadi. Davlat organlari faoliyatini jamoatchilik nazoratiga ochiq qilish, fuqarolarning ishtirokini oshirishga imkon beradi. Aholining takliflari va fikrlari Konstitutsiyani yanada takomillashtirishga yordam beradi. Umuman olganda, Konstitutsiya mamlakatning barqaror rivoji va yoshlar tarbiyasida strategik ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – 8-dekabr 1992-y.

– Konstitutsiya davlat boshqaruvi, fuqarolik huquqlari, hokimiyat organlari va ijtimoiy-siyosiy tizim asoslarini belgilovchi oliy hujjat.

2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.

– Milliy siyosat, davlat boshqaruvi islohotlari va huquqiy transformatsiya bo‘yicha ilmiy-monografik manba.

3. O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.

– Konstitutsiyaga kiritilgan o‘zgartirishlar, qo‘shimchalar, referendum natijalari va normativ hujjatlar to‘plami. https://lex.uz

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining murojaatlari va davlat siyosati hujjatlari.

– Konstitutsiyani yangilash va islohotlar bo‘yicha prezident tabrik va qarorlari asosiy huquqiy-ijtimoiy kontekst.

5. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, 1948-y.

– Konstitutsiyaning fuqarolik va siyosiy huquqlar bo‘yicha xalqaro me’yorlari bilan uyg‘unligini tahlil qilishda foydalanilgan xalqaro manba.

6. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risidagi qonunlar (1993–2023 yillar).

– Konstitutsiyaning normativ-huquqiy evolyutsiyasi va davlat boshqaruvi tizimidagi o‘zgarishlar ma’lumotlari.

7. Jahon konstitutsiyaviy tajribasi bo‘yicha ilmiy adabiyotlar (xalqaro ekspertizalar tahlili).

– Konstitutsiyaning xalqaro tajriba bilan mosligi va demokratik institutlarni mustahkamlashdagi rolini solishtirish manbai